

## INDIVIDUAL-MUALLIF O'XSHATISHLARI VA KONNOTATSIYA (NAZAR ESHONQUL HIKOYALARI MISOLIDA)

Eshmuminov Asqar Allamurodovich

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Xursandova Kibriyo Azamatovna

Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Maqolada o'zbek tilshunosligida individual-muallif o'xhatishlarining o'r ganilishi va bu turdag'i o'xhatishlarga xos xususiyatlarning ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, o'xhatishlar semantikasidagi konnotativ ma'nolar Nazar Eshanqul hikoyalari misolida ko'rsatib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** o'xhatishlar, turg'un o'xhatishlar, individual-muallif o'xhatishlari, ideostil, konnotatsiya, emotsiyallik, baho kategoriyasi, ekspressivlik.

### ABSTRACT

*The article describes the study of individual-author similes in Uzbek linguistics and the description of the characteristics of this type of simile. Connotative meanings in the semantics of similes are also shown on the example of Nazar Eshanqul stories.*

**Keywords:** similes, static similes, individual-author similes, ideostyle, connotation, emotionality, evaluation category, expressiveness.

### KIRISH

Har bir asar muallifi o'ziga xos dunyoqarash egasi sifatida o'z asarini turfa ranglarga bo'yab, bir-birini takrorlamagan go'zalliklar yaratadi. O'xhatishlar badiiy adabiyotda keng qo'llaniladigan eng yorqin obrazli vositalardan biridir. Muallif badiiy matnning xarakteristikasidan kelib chiqib turfa o'xhatishlarni qo'llaydi. Bunda obraz yaratishda tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanadi. Badiiy adabiyotda qo'llaniladigan o'xhatishlar, asosan, individual-mualliflik xususiyatiga ega bo'lib, adabiyotshunoslari, tilshunoslar uchun boy material hisoblanadi. Shuningdek, "til birliklarini tilning va madaniyatning integratsiyalashgan birliklari sifatida milliy-madaniy mazmun nuqtai nazaridan o'r ganadigan lingvomadaniyatshunoslik" [3] uchun ham boy manba bo'lib, olam lisoniy manzarasini obrazli ifodalashda muhim o'rin tutadi. Har qanday o'xhatishlarning asosini baho munosabatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'xhatishlar semantikasidagi baho munosabatlarini aniqlash milliy-madaniy konnotatsiyaga oydinlik kiritadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'xhatishlar eng qadimiy tasviriy vositalar sifatida fikrimizni obrazli ifodalash vositasi bo'lib kelgan. Bu ayniqsa, badiiy adabiyotda, xususan, badiiy asarlarda

muallifning ijodiy maqsadini omalga ishirishda: badiiy asar tilini bezash, tasvirni yorqin va tushunarligini ta'minlashda juda qo'l keladi.

Individual-muallif o'xshatishlariga berilgan ta'riflarda ham mushtaraklik bor. Xususan, rus tilshunosligida E.V.Ogoltseva erkin (individual-muallif) o'xshatishlarining turg'un o'xshatishlardan farqi ijodiy harakat natijasi ekanligini va bunday o'xshatishlar kontekst bilan uzviy aloqadorligi bilan xarakterlanishini ta'kidlaydi[11]. O'zbek tilshunosligida individual-muallif o'xshatishlari haqida M.Mukarramov, M.Yo'ldoshev, N.Mahmudov, D.Xudoyberanova, Sh.Usmonova va boshqa tilshunoslardan fikr bildirgan. Individual-muallif o'xshatishlariga berilgan ilk ta'rif M.Mukarravga tagishlidir. Tilshunos olim badiiy adabiyot tilidagi o'xshatishlarni ilk marotaba an'anaviy (turg'un) va individual o'xshatishlariga ajratadi. Individual o'xshatishlarni: "yozuvchining xalq tilidan mohirona foydalanishi orqali qo'llagan o'xshatishi bo'lib, ularda emotsionallik-ekspressivlik, obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi" deb ta'riflaydi[5]. Keyinchalik M.Yo'ldoshev ham individual-muallif o'xshatishlariga xuddi shu mazmundagi ta'riflarni keltiradi: "Xususiy muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi"[9]. Sh.Usmonova talqinida o'xshatishlarning bu turi "muallifning o'ziga xos original o'xshatishi bo'lib, u yozuvchining mahoratini belgilaydi"[6].

Har qanday yozuvchining qiyoslash-o'xshatish tizimi uning idiostilining eng yorqin va o'ziga xos ko'rsatgichlaridir. Idiostil deganda muallifning individual uslubi tushuniladi. Shuningdek, u muallif ruhiyati bilan uzviy bog'lanadi. M. Abdupattoevning aytishicha, o'zbek tilshunosligida muallif idiostilini ilk marotaba ilmiy asosda o'rgangan S. Umirova idiostilni poetik individuallik atamasi ostida tadqiq etadi va "ijodkorning individual mahorati sabab, matnda qo'llanilgan har bir til materiali poetik birlikka va faqat shu ijodkor uslubiga xos bo'lgan individual vositaga aylanishi mumkin" ligini ta'kidlaydi. "Shu bilan birga, muallif idiostili tilni yangi birlik va vositalar bilan boyishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi" [1]. Ba'zi tadqiqotlarda lingvokulturologiyani turg'un o'xshatishlar, lingvopoetikani esa individual-muallif o'xshatishlari qiziqtirishi aytildi. Ammo bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Har ikki turdag'i "o'xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir" [7].

Individual-muallif o'xshatishlari faqat badiiy asarlarda emas, balki xalq og'zaki ijodi uchun ham xosdir. Bu haqida J.Eshonqul shunday deydi: "...baxshi

yoki ertakchi ham asarga o‘z individual o‘xshatish, qiyoslarini ham kiritishi mumkin. Ammo bu ham an’anaga, epik ijod qonuniyatlariga mos kelmasa, asar syujetiga singishmaydi, uning “yotligini” xalq darrov anglab oladi. O‘zida xalqning an’ana, udum, marosim, fikr tarzini ifoda etgan detalgina xalqona obrazning ma’nosini ochishi, kengaytirishi mumkin”[2]. Bundan ayon bo‘ladiki, har qanday matn muallifi u baxshimi, ertakchimi, yozuvchimi asarga olib kirayotgan qiyoslash-o‘xshatishi, avvolo, til egalari bo‘lgan xalq uchun tushunarlik kasb etishi, tafakkurida aniq tushuncha tarzida inikos topishi va o‘zi mansub bo‘lgan millatning madaniy saviyasini aks ettira olishi lozim. Bobur tili bilan aytganda, bu bilan: ”yozuvchiga ham, o‘quvchiga ham tashvish kamroq bo‘ladi”[10].

Tarixiy taraqqiyot natijasida individual-muallif o‘xshatishlari tez-tez takrorlanib, til egalarining xotirasida saqlanib qolishi bilan barqarorlashib boradi. Turg‘un o‘xshatishlarning ham aksariyati xuddi shunday individual-muallif o‘xshatishlaridir. Muallif o‘xshatishlari uchun turg‘un o‘xshatishlar asos vazifasini ham o‘taydi. Bu haqida E.V.Ogoltseva ham aytib o‘tgan. Ilmiy adabiyotlarda o‘xshatishlarning to‘rt komponentdan tashkil topishi ta’kidlanadi, ya’ni: *o‘xshatish subyekti (A)*, *o‘xshatish etaloni (B)*, *o‘xshatish asosi (D)* va *o‘xshatish vositasi (E)*. Turg‘un o‘xshatishlarning B elementi qanchalik keng tarqalgan bo‘lsa, uning qiyosiy aloqalari shunchalik kuchli va aniqroq bo‘ladi. Uning individual ijodiy, obrazli qurilishda qo‘llanilishi shunchalik kutilmagan tasvirlarni yuzaga chiqaradi[11]. *Ikki kundan so‘ng esa birinchi suratdan boshqa hamma suratlardagi manzaralar bir-biriga aralashib ketdi, so‘ng yo‘l-yo‘lakay daraxtga bir zum qo‘nib o‘tgan qushlar kabi xotiram daraxtlaridan uchib ketdi* (Maymun yetaklagan odam). Keltirilgan parchada xotira daraxtga, suratlardagi manzara qushga nisbatlangan. Bu orqali o‘quvchi osmonu falakda uchib kelayotgan qushning daraxtga ohista qo‘nishi va hech qancha vaqt o‘tmay “pir” etib uchib ketishini ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Agar qush faqat turg‘un o‘xshatish etaloni bo‘lib kelganida, yuqorida matn *“Ikki kundan so‘ng esa birinchi suratdan boshqa hamma suratlardagi manzaralar bir-biriga aralashib ketdi, qushlar kabi xotiram daraxtlaridan uchib ketdi”* tarzida berilardi va bu bilan obrazlilik pasayib, tavsiriylig yo‘qolardi. Turg‘un o‘xshatishlarning yuqori darajada obrazlilik kasb etishi ko‘p hollarda muallif mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Mualliflar tomonidan keltirilgan erkin o‘xshatishlarning aniq sanog‘ini olib bo‘lmaydi. Sababi bu turdagagi o‘xshatishlar asar matnida turg‘un o‘xshatishlardan ko‘p qo‘llaniladi. Ammo kichik janrlarda, jumladan, hikoyada nisbatan olish mumkin. Masalan, yozuvchining “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida 30 ga yaqin individual-muallif o‘xshatishlari qo‘llanilgan bo‘lsa, turg‘un o‘xshatishlarning soni esa 10 taga ham bormaydi. Bu esa badiiy asarni yaratishda ijodkorning taxayyuli, analogiya quvvatining mahsuli bo‘lgan erkin

o‘xshatishlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Turg‘un o‘xshatishlarda bo‘lganidek, individual-muallif o‘xshatishlari ham baho munosabatlaridan holi bo‘lmaydi. Chunki bu turdagи o‘xshatishlar ekspessivlik, bo‘yoq dorlik, obrazlilik, orginallik ustida quriladi. Turg‘un o‘xshatishlar semantikasida konnotativ ma’nuning muhim o‘rin tutishini ko‘plab tadqiqotlarda ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu bilan konnotatsiyani faqat turg‘unlik kasb etgan birliklar uchun xos deb o‘ylamaslik kerak. O‘z vaqtida M.Mukarramov ham individual-muallif o‘xshatishlarini “ijobiy” va “salbiy” baho munosabatlari tashkil atishini aytib o‘tgandi. Konnotatsiyaning individual-muallif o‘xshatishlarida namoyon bo‘lishi haqida gapirishdan oldin uning muhim tarkibiy qismlari haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Sh.Maxmaraimova konnotatsiyani: “tasavvur – predmet, belgi, tushunchalarning subyektiv hissiy akslanishi; hissiy unsurlar; madaniy unsur; maydon; belgining maqomi, dunyoqarash va sinfiy komponent” sifatida tushuntiradi[4]. Konnotatsiya odatda mayda bo‘laklardan tashkil topadi hamda bu bo‘laklar bir-biridan mustaqil ma’no anglatmasdan, balki umumiylit kasb etib, mazmun tomonidan bir-biriga birlashadi. “Shu sababdan semantik tahlilda konnotativ komponentlar umumiy holda tekshiriladi. Konnotativ komponent nutqni yuzaga chiqaruvchi, kommunikatlarning voqelikka munosabatini bildiruvchi unsur bo‘lib, dastlab so‘z ijodkorlari tomonidan payqaladi, his etiladi”. Konnotativ ma’no to‘rtta asosiy komponentdan tashkil topadi: *emotsional, ekspressiv, baholovchi va uslubiy komponent*. Bu komponentlar lug‘at tarkibidagi katta miqdordagi so‘zlarning semantikasida mavjud bo‘ladi va “ijobiy” va “salbiy” bo‘yoq dorlikni ifodalaydi[4].

Emotsionallik so‘zlovchi va tinglovchining nutq jarayoni (matn) da voqelik yoki obyekt haqida hosil bo‘lgan, his qilgan yoqimli va yoqimsiz, yaxshi va yomon his tuyg‘ularini namoyon qiladi. Lisoniy belgining emotcionallikni ifoda etishi kommunikativ xususiyatlarga ega bo‘lмаган undovlar bilan, o‘z va ko‘chma ma’no bilan, modal shakl yasovchi qo‘sishimchalar bilan, fe’li birikmalar bilan hamda matnning umumumiyl mazmuni bilan yuzaga chiqadi[4]. Biz e‘tiborizni oxirgi: matnning umumiy mazmuniga qaratamiz. Ma’lumki, individual-muallif o‘xshatishlari o‘xshatish mazmuni ifodalangan matn ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. D. Xudoyberanova o‘xshatishning matn referensiyasiga munosabatiga ko‘ra ikki turini ajratib ko‘rsatadi: 1. Tarkibidagi jumllalarda o‘xshatish qurilmasi mavjud bo‘lgan matnlar. 2. Matn mazmunidan o‘xshatish munosabati anglashiladigan matnlar. O‘xatishga asoslangan matn semantikasida o‘xshatish mazmuni butun matn bo‘ylab tarqalgan bo‘ladi. Bunda birinchi jumlada kelgan o‘xshatish ma’nosini matnning boshqa jumlalarida ham davom etadi va uning nima uchun aynan unga o‘xhatilayotgani izohlanadi. Matn o‘xirida esa matn boshida kelgan so‘z takrorlanib,

natija yuzaga chiqadi[8]. *Ish xuddi oxiri yo‘q yo‘lga o‘xshar ekan.* Butun vujudingni unga botirib tashlaganing va har bir lahzangni, soniyangni sart qilganing bilan, bir kuni erta tongda uyg‘onarkansanu hali hech narsa qilib ulgurmaganingni, o‘rningdan turishing bilan askarni jang kutgani kabi, seni ham **bir olam ish** kutib turganini anglab qolarkansan (Xayol tuzog‘i). Keltirilgan matnda emotSIONALLIKNI yuzaga chiqaruvchi hech bir grammatik vosita qo‘llanilmagan. Lekin mazkur matnning umumiy ma’nosidan *ish hech qachon tugamaydi* degan emotiv hissiy bo‘yoqdorlik yuzaga chiqadi. Bu bilan emotSIONALLIK individual-muallif o‘xshatishlari semantikasining asosiy uzvlaridan biri ekanligi oydinlashadi.

“Belgi anglatgan ma’nodagi baholovchi komponent – so‘z ma’nosida mavjud “ma’qul” va “ma’qul emas” mezonini keltirib chiqaruvchi komponentdir”. “bahocomponenti asosiy ikki: ijobiy (meliorativ) va salbiy (peyorativ) bahodan tarkib topadi”[4]. Bu kabi baho munosabatlari barcha til birliklari uchun umumiyyidir. Baho komponenti orqali til jamiyatidagi kishilarning ma’naviy dunyosi, milliy-madaniy o‘ziga xosligi, qadriyatlar tizimi yaqqol namoyon bo‘ladi. Baho komponentlari badiiy asarning suyujet tizimini hosil qiladi. Chunki har qanday asarda “ijobiylilik va salbiylilik”, “yaxshilik va yomonlik” nuqtasi kesishadi. Badiiy asarda individual-muallif o‘xshatishlaridagi baho komponentlari turli harakat-holatlarni yuzaga chiqaradi. Masalan, asar qahramonlarining ruhiyatidagi evrilishlarni aks etirib, asar suyujetini kutilmagan tomonga ham burib yuborishi mumkin. N.Eshonqulning “Shamolni tutub bo‘lmaydi” hikoyasida shunday jumla bor: *Bayna momo unga o‘grayib qaradi va ko‘zlarida birdan alam yondi: qizlar qo‘rqib ketishdi: ko‘z oldilarida Bayna momoning butun tanasi birdan tutab jo‘naganday tuyildi. Qizlar dud hidini aniq sezishdi* (Shamolni tutib bo‘lmaydi). Keltirilgan parchada Bayna momoning butun tanasini birdan tutab jo‘nashiga qizlarning: “ –Agar o‘g‘lingiz bo‘lganida men sizga jon-jon deb kelin bo‘lardim” gapi favqulotda ta’sir qiladi. Bu Bayna momoning yarasini tirnab, butun tanasini tutatadi va asriy g‘am anduhlarining sababchisi, o‘g‘li va erining bevaqt o‘limiga sabab bo‘lgan Zamon otboqardan o‘ch olishiga turki bo‘ladi. Demak, bu o‘z navbatida, o‘xshatish semantikasidagi salbiy bahoni yuzaga chiqaradi.

“Ekspressiya so‘zlovchining voqelikka munosabatini namoyon etishidir. Ekspressiv komponentning ko‘lamini so‘zning ehtimol qilinmagan, ya’ni hayolga keltirib bo‘lmaydigan kontekstlarida yaqqol kuzatish mumkin”[4]. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, ekspressiya lug‘aviy birliklarning o‘z ma’nosidan chetga chiqib, tasavvur etish qiyin bo‘lgan yangi hosila ma’nolarni yuzaga chiqaradi va bu bilan mumtoz adabiyotdagi mubolag‘a san’atini esga soladi. Ekspressivlik individual-muallif o‘xshatishlarining asosiy, obrazlarning yorqinlik darajasini ta’minlaydigan

muhim uzvidir. Muallif u orqali butun asar (hikoya) ning kompozitsion qurilishini belgilashi ham mumkin. O‘quvchini hikoya boshidayoq qahramonlar hayoti, ruhiy olami bilan tanishtiradi. Bunda o‘xshatish detal vazifasini o‘taydi. Yozuvchining “Bepoyon osmon” hikoyasining boshlanmasida quyidagi jumlalar bor: *Pashshaning qanotiday keladigan shu bir parcha qog‘ozda ham Oyto‘ldi enamga nisbatan bir umr tark etmagan ta’na-yu dashnomini, o‘zining azaliy munosabatini bildirish uchun “Oyto‘ldi enang” deya istehzo qilgani va bunday pichingu kinoyalar faqat ammamning qo‘lidan kelishini xatni o‘qiganimdayoq tushungan edim.* Yuqorida keltirilgan matndagi *pashshaning qanotiday* o‘xshatishi “obrazlilik, belgi, holat intensivligi hamda u yuzaga chiqargan birlikning yangiligi bilan o‘zga komponentlardan farq qiladi”. Chunki matn davomida “u orqali faqatgina u yoki bu darajada tasavvur qilish mumkin bo‘lgan hissiy holatni qo‘l bilan ushlab ko‘rish mumkin bo‘lmasdan surʼat darajada “moddiylashtirib” yorqin surat darajasida lo‘ndalashtirib ko‘rsatgan.

## XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ayon bo‘ladiki, kannotativ ma’nolar individual-muallif o‘xshatishlari semantikasida muhim o‘rin tutadi. Bu kabi o‘xshatishlarda kannotativ ma’nolarning yuzaga chiqishi bevosita kontekst bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zi nisbatlanayotgan obyekt yoki voqelikni idrok etishda asos vazifasini o‘taydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTAR (REFERENCES)

1. Абдулпаттоев М. Идиостил – муаллифнинг оккозионал ўзига хослиги/ ”Istiqlol davri o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 114-119.
2. Эшонкул Ж. Фолқълор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 62 б.
3. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. –Toshkent: Noshir, 2019 – B.140
4. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya). I Qism. – Toshkent: Firdavs-shoh, 2021. – B. 108, 109, 112.
5. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 28.
6. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. –Toshkent, 2015. – B. 101.
7. Usmonova SH. Lingvokulturologiya: Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 102.
8. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг анропоцентрик талқини: Филол. Фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 97-98.
9. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвopoетик таҳлили. –Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси: Фан, 2006. – Б. 46.
10. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. – Б. 390.